

## **O‘TTIZ YILLIK URUSH NIMA SABABDAN BOSHLANGAN?**

Reformatsiya davridan boshlab Yevropani parchalab tashlagan diniy va siyosiy mojarolar, ayniqsa o‘ttiz yillik urush davrida yanada keskinlashdi. Ushbu urush 1618-yilda Bogemiyali (hozirgi Chexiya) protestant dvoryanlar ikki nafar katolik gubernatorni Pragadagi qasrlarning biri derazasidan uloqtirishgach boshlangan edi. Shundan so‘ng dvoryanlar protestant Fridrix Pfalsskiyni Bogemiyaning qiroli etib sayladilar. Ammo Fridrixga toj kiydirish marosimidan keyin oradan 1-yil ham o‘tmasdan Muqaddas Rim imperiyasining imperatori Ferdinand II (1619— 1637) bo‘ldi. Ferdinand II o‘z imperiyasini butunicha katoliklar diniga o‘tkazishga orzumand edi.

1620-yili Ferdinandning armiyasi Bogemiyaning ishg‘ol qildi. Praga ostonalarida mazkur armiya Fridrixning lashkarini tor-mor qilib ulkan zafar bilan shaharga kirib bordi. Fridrix Niderlandga qochib ketdi. Ferdinandning g‘alabasi shu qadar uzil-kesil bo‘ldiki, oqibatda 1627-yilga kelib butun Bogemiyada katolisizm qaytadan tiklandi.

Urush tez orada bir necha mamlakatlarni qamrab oldi. Ispaniya Muqaddas Rim imperiyasi tarafdori edi va shu boisdan 1621- yilda Reynlandda ispanlar va gollandlar o‘rtasida janglar avj olib ketdi. Ispanlar armiyasi muvaffaqiyatli harakat qilganligi sababli 1625-yili gollandlar Daniya va Angliyaga yordam so‘rab murojaat qildi. Urush asosan daniyalilar kuchi bilan olib borilayotgan edi, biroq ular ham 1629- yilda mag‘lubiyatga yuz tutdilar.

Daniya mag‘lubiyatga uchragach shved qiroli Gustav Adolf (1611—1632), ya'ni Shimoliy Sher, protestantlar dini xavf-xatar ostida qolganligini anglab yetdi. Shvedlarning savdo-sotiq ishlariga Ispaniya bosh vaziri Olivaresning Boltiq dengizida ispanlar ta'sirini kuchaytirishni ko‘zlab qilgan harakatlari juda pand berardi. O‘z navbatida bu hol 1630- yilda Gustav Adolfning Ispaniyaga va Muqaddas Rim imperiyasiga qarshi urush ochishiga sabab bo‘ldi. 1635- yilda Fransiya qirollik kengashining rahnamosi Rishelye ham o‘z mamlakatining Ispaniya va Muqaddas Rim imperiyasiga qarshi urushga kirajagi haqidagi qarorni qabul qildi. 1636- yilda Ispaniya armiyasining bir qismi deyarli Parijgacha kirib bordi, ammo 1637- yildan boshlab Fransiya va uning protestant ittifoqchilari Ispaniya askarlari ustidan birin-ketin g‘alabalarni qo‘lga kiritib boshladi. 1643- yil Rokrua yonida bo‘lgan janglarda Ispaniya mag‘lubiyatga uchragach Olivares taxtdan olib tashlandi, biroq hali uzil-kesil tinchlik qaror topishiga yana 5- yil bor edi.

## **VESTFAL SULHI QACHON TUZILGAN?**

O‘ttiz yillik urush 1648- yili Vestfal sulhi bilan nihoyasiga yetdi. Tinchlik sulhi Niderlandlarning birlashgan provinsiyalariga, Shveysariya kantonlariga, shuningdek Muqaddas Rim imperiyasi tarkibiga kiruvchi ko‘plab german davlatlariga mustaqillik va e'tiqod erkinligini berdi. Biroq bu shartnoma Burbonlar va Gabsburglar o‘rtasidagi

tinchlikni o'rnata olmadi, natijada 1659- yilga qadar Fransiya va Ispaniya o'rtasida toju taxt uchun kurash davom etdi.

### **ALLOH KIM?**

Qadimgi arab afsonalarida borliq olamni va odamlarni yaratgan, shuningdek boshqa xudolarning yo'lboshchisi va otasi «Alloh», ya'ni Xudo nomi bilan atalgan. Dastlab u ajdod-xu-dolardan biri bo'lgan, keyinchalik bora-bora aksariyat qadimgi arab qabilalari faqat unga topina boshlaganlar.

Mazkur xudoga bag'ishlangan eng asosiy muqaddas qadamjolardan biri Arabistonning Makka shahrida joylashgan. Qizig'i shundaki o'sha davrlarda Allohni inson qiyofasida tasavvur qilishgan, uning hatto turmush o'rtog'i — Allat ismli ayol xudo, shuningdek ikki qizi — Uzza va Manatlar bo'lgan.

Islomning yagona monoteistik din sifatida paydo bo'lishida aksariyat arab qabilalari uchun juda yaqin va tushunarli bo'lgan Alloh siymosidan foydalanilgan. Biroq, Iso Masihdan farqli o'laroq Alloh siymosi asta-sekin insoniylik qiyofasini yo'qota borgan.

Qur'onga ko'ra Alloh umuman jismoniy siymoga ega emas. U qudratli, har narsadan ogoh, shuningdek abadiy va mutlaqdir. Albatta, keyinchalik, uning xotini va qizlarini hurmat qilib to'qilgan afsonalar islom dini tomonidan inkor etilib, bularning barchasi Iblisning nayranglari deb uqtirilishini tushunish mumkin. Xuddi Iso Masih kabi Alloh ham turli mo'jizalar ko'rsatishga qodir deb hisoblangan, u dahshatli va o'ta mehribon xudo sifatida gunohkorlarni jazolab, o'z tarafdorlariga muttasil yordam bergan.

Shunisi diqqatga sazovorki, islomda umumiy mifologik syujetlar saqlanib qolgan, masalan Qiyomat jazosi haqidagi afsona. Unga ko'ra Qiyomat kunida Alloh barcha gunohkorlarni jazolab, yaxshi va solih kishilarga marhamat ko'rsatadi.

Hatto islom Allohi siymosida ham eng qadimiy davrlar ta'siri saqlanib qolgan, bunga Allohning 99 ismga egaligi dalildir.

### **MUHAMMAD KIM BO'LGAN?**

VII asr boshlarida bir arab o'spirini o'zini ilohiy xislat sohibi, yangi din yaratish va uni targ'ib qilish uchun ilhomlangan zot deb hisoblagan. Bu juda buyuk zot bo'lib uning ismi — Muhammaddir. Muhammad dunyoviy uch buyuk dindan birining ilk urug'ini sochgan shaxsdir. Muhammad o'z dinini «Islom» — ya'ni Alloh irodasiga bo'ysinish dini deb atadi. Bugungi kunda yer yuzida 550 mln.dan ko'proq islom izdoshlari mavjud. Ularni musulmonlar deb atashadi.

Ko'p jihatlardan islom yahudiylilik va nasroniylikka asoslanadi. Muhammad yahudiylarning va nasroniylarning yagona Xudosini yakka yolg'iz va haqiqiy Xudo deb e'lon qildi. Muhammad ta'limotiga ko'ra Alloh insonlar oldida o'z payg'ambarlari orqali yuz ko'rsatadi, bu payg'ambarlar safida Muhammad ham bordir. Xudo Musoga Qonunni, Isoga Injilni va Muhammadga Qur'onni bergan.

Musulmonlar mutlaq Allohning yagonaligiga, qudratligiga va hamma narsani bilguvchiligiga va abadiyligiga ishonadilar. Islomning asosiy shiori: «La ilaha, ilalloh, Muhammadur Rasulalloh» — ya'ni «Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad uning (rasulidir), elchisidir». Alloh yettinchi osmondagi taxtda, o'zining pok va fayzli farishtalari qurshovida o'tiradi.

Inson o'limidan keyin ham uning ruhi yashashda davom etishiga ishonch — Islomning asosiy qismlaridan biridir. Musulmonlar qiyomat kunida marhumlarning ruhlari tirik odamlar ruhi bilan bab-baravar o'z hayotlarida amalga oshirgan ishlari uchun javob berish uchun o'rinlaridan turishiga ishonadilar. Shuningdek musulmonlar, har bir insonning qismati u dunyoga kelishidan avval belgilab qo'yilishiga va bu haqda buyuk Ilohiy kitobga qismat bitigi yozilishiga ham ishonadilar. O'z umrlari davomida musulmonlar 5 ta asosiy burchni ado etishlari lozim. Shulardan biri — Makkani, ya'ni musulmonlarning muqaddas shahri, Muhammadning tug'ilgan vatanini ziyorat qilishdir.

Muhammadning ta'limoti ham, xuddi ungacha bo'lgan payg'ambarlarniki kabi inqilobiy ta'limot edi. Shu sababli 622- yilning 24-sentyabrida u Makkadan unga qo'shni shahar bo'lgan Madinaga ko'chib chiqishga majbur bo'ldi. Ana shu ko'chish (arab tilida — hijrat)ni islomning tug'ilishi sifatida nishonlaydilar. Madinada Muhammad va uning izdoshlari yangi turmush tarzining asoslarini ishlab chiqdilar. U Madina shahrining hukmdori bo'ldi va islom jamiyatini tashkil qildi. Ushbu jamiyat diniy qoidalariga qat'iy amal qilar, o'jizlarni — ayollar, yetim-yesirlar va qullarni himoya qilar edi.

Arablar jangari xalq edi, shu boisdan ham yangi dinning yoyilishi uchun tinchosoyishta targ'ibot, tashviqot emas, balki asosan qurol kuchi bilan kurashmoqqa to'g'ri keldi. 630- yili Muhammad Makkaga 10 ming askarni ziyoratga boshlab kelib, ushbu shaharni qo'lga kiritdi. Shundan boshlab Makka musulmonlarning muqaddas shahri. Kaa'ba — ya'ni qadimiy majusiylik obidasi — uning eng aziz qadamjosi bo'lib qoldi.

632- yilda»Muhammad vafot etdi. Bir paytlar hamma asilzodalar tomonidan tazyiqqa uchragan quvgindi paygambar o'z umrini Arabistonning juda katta qismiga hukmdor sifatida yakunladi. U o'zidan kelgusida vujudga keladigan qudratli davlatning asosini meros qoldirdi.

Arabistonning sahroyi ko'chmanchilari jangari, urishqoq hamda nihoyatda o'z urug'lariga sadoqatli edi. Muhammad ana shu sadoqatni o'ziga va yangi din tarafiga burishga muvaffaq bo'ldi va oqibatda islom butun yer yuziga tarqaldi. Yevropaliklar ko'pincha Islom dini jangovar, o'zgacha e'tiqodlarni barbod qiluvchi din deb hisoblashadi. Ammo asrlar davomida musulmonlar bilan yelkama-yelka, qo'shni bo'lib yahudiylar, nasroniylar va buddaviylar ham tinch-totuv yashab kelishgan. Islom o'zigacha bo'lgan ta'limotlarning barcha yaxshi jihatlarini o'ziga singdirgan, shu boisdan ham uning zamirida yangi va o'ziga xos ta'limot paydo bo'ldi. Muhammad shak-shubhasiz insoniyat tarixidagi eng ulug' va mukarram zotlardan biri edi.

## **KAA'BA NIMA DEGANI?**

Dunyodagi dinlarning eng asosiylaridan biri islomning bosh ibodatxonasi Kaa'ba deb ataladi. U deyarli ikki ming yildan buyon dunyodagi barcha musulmonlarning bosh sajdagohi bo'lmish Arabistonning Makka shahrida joylashgan. Kaa'ba so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi «kub» so'zi bo'lib, balandligi 15 metrcha atrofida bo'lgan mazkur tosh imoratning o'zi ham kub shaklini eslatadi. Ibodatxonaning sharqiy burchagida «hajaral asvad», ya'ni «Qora tosh» qo'yilgan bo'lib, u sajda va tavoflar uchun asosiy buyum hisoblanadi, aytishlaricha uni Yerga Allohning shaxsan o'zi yuborgan emish.

Aslida esa bu — qizg'ish-qo'ng'ir rangdagi uch bo'lak meteoritdan iborat. Tadqiqotchilarning aniqlashlaricha, u Yerga ikki ming yildan avvalroq tushgan bo'lib, o'sha paytlardayoq siginish manbaiga aylangan.

Kaa'ba ibodatxonasi hamisha yaltiroq zarhal berib tikilgan kaa'bapo'shlar bilan yopilgan bo'lib, bu yopinchiqlarga zardo'zi usulida Qur'on oyatlari bitilgan. Shunisi e'tiborga molikki, mazkur ibodatxonaga olib kiruvchi yakkayu yagona eshik yerdan ikki metr balandlikda joylashgandir. Shuning uchun biror bir musulmon Kaa'baning ichkarisiga kira olmaydi.

Ushbu ibodatxona Makkaning atrofi keng hovli bilan o'ralgan asosiy masjidining qoq o'rtasida joylashgan. Ibodatxonaning tevaragida maxsus tosh yotqizilgan yo'lakcha bo'lib ziyoratchilar undan yurib sajdagohni maxsus rasmu-rusumlar bilan ziyorat qiladilar. Ibodatxona eshigi yonida musulmonlar uchun nihoyatda muqaddas bo'lgan, musulmon afsonalariga ko'ra payg'ambar Ibrohim alayhissalomning oyoqlarining izi tushgan tosh joylashgan. Ushbu toshning yonida esa kishilarni poklash, tozalash xususiyatiga ega bo'lgan Zamzam bulog'i bor.

Arxeologlarning aniqlashicha, Kaa'ba va undagi buyumlar juda qadimiy sajdagohlarning qoldiqlari bo'lib, ular islom paydo bo'lishidan ancha ilgari ham topinish ob'yektlari bo'lgan. Kaa'baning markazida bir paytlar Makka shahrining ilohiy ma'budi bo'lgan Xubalning tosh siymosi o'rnatilgan bo'lib, uning tevaragida Arabistonning turli qabilalari tomonidan e'tiqod qo'yilgan 360 ta tosh sanamlar bo'lgan.

## **HAJ NIMA DEGANI?**

Har bir musulmon umrida bir marotaba bajarishi farz bo'lgan ziyorat Haj deb ataladi. Ushbu marosim Umra (ya'ni kichik ziyorat) va Kiron (katta ziyorat)dan iboratdir.

Umrada muqaddas Zamzam bulog'i bo'yida poklanish va barcha musulmonlarning asosiy ibodatxonasi bo'lgan Kaa'ba atrofida aylanish rasmu-rusumlari amalga oshiriladi. Umra ziyorati maxsus tilovatlar bilan yakunlanadi. Umra farzlari ado etilgach, ziyoratchilar musulmonlar uchun nihoyatda muqaddas bo'lgan Arofat vodiysiga yo'l olishlari mumkin.

U yerda Hajning asosiy rasmu-rusumlari amalga oshiriladi, ya'ni ziyoratchilar Arofat tog'i atrofida turishib alohida toat-ibodatlar qiladilar. Bu ibodat kun bo'yi, quyosh chiqishidan to botgunicha davom etadi. Shundan so'ng ibodatchilar nurafshon

chiroqlar bilan yoritilgan masjidlariga o'tadilar, u yerda ham kechki, tungi, ertalabki ibodatlar to tong sahargacha davom etadi. Bu rasmlar tugatilgach ziyoratchilar Mina vodiysi tarafga yo'l oladilar va u yerda iblis timsoli bo'lgan 3 ta ustundan biriga yettitadan tosh otadilar.

Shundan so'ng maxsus qurbonlikka atalgan jonivorlarni qurbon qilish, socholdirish yoki sochning bir tutamini kesish marosimiga o'tiladi, shundan keyin ziyoratchilar yana Makkaga qaytadilar. Haj safarini ado etgan musulmon yashil salla o'rash huquqiga va Hoji degan sharaflı unvonga sazovor bo'ladi.

Turli vaqtlarda bajariladigan Haj arkonlarini ado etish udumlari eramizning VII asri boshlarida paydo bo'lgan. Albatta, hozirgi ziyoratchilar amalga oshiriladigan qadimiy majusiylik rasm-rusumlarining hammasining ham ma'nosini to'la anglayvermaydilar. Ammo shunday bo'lsada, ular uzoq o'tmishdan bizning kunlarga yetib kelgan rasm-rusumlarni hayratlanarli darajada izchillik bilan ado etadilar.

### **O'RTA ASR ARAB ALLOMALARI NIMALAR BILAN SHUG'ULLANISHGAN?**

Islom dunyoga kelmasidan ming yillar ilgari yunonlarga tobe mamlakatlar kabi Yunoniston ham ilmu-ma'rifatning o'ziga xos markazi bo'lgan. Rim imperiyasi davrida ham o'zining Madaniy markazlik mavqeini saqlab qoldi. Aristotel (Arastu), Ptolemey (Potlimus), Arximed kabi faylasuf va matematiklar Koinotning tuzilishini sharhlab berdilar. Gippokrat (Buqrot) va Galen (Jolinus) kabi allomalar tabobat sohasida kitoblar yozdilar.

Ularning ilmiy ishlarini, yunonlar, rimliklar va vizantiyaliklar avaylab asrashgan, qayta ko'chirishgan. Ammo ularning ko'pchiligi o'z vatanlarida dahriy deb e'lon etilganligi bois Fors mamlakatiga qochib ketdilar. Forslar yurtida, ya'ni Sharqda yunon donishmandligi hind va xitoy falsafasi bilan birlashib, yanada yuqoriroq pog'onalarga ko'tarildi.

Biz har kuni muomalada bo'ladigan son va raqamlar, bizning nazdimizda eng ishonchli va jo'n narsalardek tuyuladi. Biroq Rim imperiyasining rim raqamlari va hisoblash tizimi butunlay boshqacha va o'ta noqulay edi. Masalan S1X va 1LU ni bir-biriga qo'shib SXSHni chiqarguncha 109 ga 54 ni qo'shib 163 ga ega bo'lish ming karra osonroqda! Mana shu bizlar hozirgacha foydalanadigan ajoyib sanoq tizimi aynan musulmon olimlari tomonidan takomillashtirilgandir.

Aniqrog'i, bunday raqamlar Hindistonda o'ylab topilgandi, firoq ular Yevropaga aynan arab ilmu fani tufayli keyg yoyildi. Bir paytlar ularni IX asrda yashab o'tgan o'zbyok matematigi Al-Xorazmiy sharafiga «algorizmlar» deb ham atashgan. Bunday qulay sanoq tizimi arab olimlariga juda murakkab matematik hisob-kitoblarni ham amalga oshirish imkoniyatini berardi.

Musulmon allomalari astronomiya sohasida ham ulkan kashfiyotlarni amalga oshirdilar, ayniqsa ular tomonidan astrolyabiya asbobining kashf etilishi, dengizchilar uchun benihoya ulkan muvaffaqiyatlar keltirdi.

O'rta asr arab olimlari orasida nihoyatda zabardast donishmandlar, mutafakkirlar ham juda ko'p bo'lgan. Ibn Sino (Yevropada uni Avisenna deb atashadi) 980- yili Buxoro yaqinida dunyoga kelgan. U tabobat, matematika, astronomiya, iqlimshunoslik va falsafa ilmlari bilan shug'ullangan. Ibn Sino bitgan kitoblar orqali yevropaliklar musulmon olami tabobatidan, aniq fanlar ilmidan voqif bo'ldilar. Uning tabobat borasida yozgan «Al-Qonun» yoki «Tabobat ilmi qonunlari» kitobi o'rta asrlarda eng keng tarqalgan qo'llanmalardan biri edi. Mazkur asarida Ibn Sino juda ko'p og'ir xastaliklarning belgilarini tavsiflaydi, shuningdek arab olimlari tomonidan qo'llaniladigan 760 dan ortiqroq turli dori-darmonlarning ro'yxatini keltiradi.

Ar-Roziy (Yevropada uni Razes deb atashgan) 900- yillarda Bag'doddagi shifoxonada bemorlarni davolagan tabib bo'lib, u o'z davrida dunyodagi eng zur shifokor sanalgan. U turli kasalliklarni davolashning yangi va samarali usullarini ishlab chiqqan va mufassal tabobat qomusini yaratgan.

Al-Ma'sudiy X asrda Misrda yashagan. U tabiiy fanlar bilan shug'ullangan. Geografiya, geologiya, biologiya sohasi bo'yicha ilmiy asarlar bitgan. Darvindan 900-yil ilgari evolyutsiya qonunini kashf etgan. Ayni paytda u buyuk sayyoh ham bo'lgan, uzining 30 jildlik qomuslar majmuasida o'zi bo'lgan barcha mamlakatlarni batafsil ta'rif va tavsiflangan.

### **SALJUQIY TURKLAR KIMLAR EDI?**

Alloh tomonidan kishilarni yaxshi hayotga da'vat qilish uchun yuborilgan Muhammad payg'ambar 632- yilda vafot etdi. U vafot etgandan keyingi 150 yil davomida Ispaniyadan to Xitoy chegaralarigacha bo'lgan hududda musulmon xalifalari hukmronlik qildilar. Ular davlatni boshqarishning yangi, Qur'oni karim aqidalariga asoslangan shaklini yaratdilar va takomiliga yetkazdilar (zero, musulmonlarning nuqtai nazariga ko'ra Qur'onda Muhammad bevosita Allohning kalomini bayon etgandir).

Islomning yangi mamlakatlarida mahalliy urf-odatlar, ko'nikmalar, masalan qishloq xo'jaligini yuritish usullari, turli kasbu hunarlar, me'morchilik shakllari va kiyinish madaniyati asosan avvalgidek, o'zgarmasdan qoldi, albatta. Biroq ularning xalqlari ko'pmillatli yagona islom hamjamiyatiga birikdilar va yagona dinning xayrli ta'siri ostida o'zaro yaqin munosabatga kirishdilar, zero islom aqidalari, hamda yagona arab tilining ham bunda beqiyos xizmati bor edi. (Zero, barcha diniy marosimlar, toat-ibodatlar, hatto rasmiy davlat hujjatlari ham arab tilida yuritilar edi).

Shuningdek kishilar orasida do'stona va hamkorlik aloqalarining vujudga kelishida, musulmonlar bajarishi lozim bo'lgan sharaflil amal — Makkaga (ziyosat) haj qilishning ham juda katta ahamiyati bor edi. Biroq XII asrning boshlariga kelib to O'rta yer dengizining sohillarigacha bo'lgan g'arbiy musulmonlarning yerlari tobora ko'proq bosqinchilik talonlariga uchray boshladi. Musulmon lashkarlari va Vizantiya qo'shinlari o'rtasida ham to'qnashuvlar bo'lib va mojarolari ro'y bermasin, bari bir «musulmon olamining yuragi» bo'lgan mamlakatlar — Arabiston, Yaqin Sharq, Fors

davlati, Mesopotamiya hamda Shimoliy Hindiston va O'rta Osiyoda ularning hukmdorligi qat'iy va barqarorligicha qolaverdi.

X—XI asrlarda saljuqiy turklarning maydonga chiqishi tufayli musulmonlarning hukmronligi yanada mustahkamlandi. Bir guruh O'rta Osiyo ko'chmanchi xalqlaridan bo'lgan Saljuqiylar musulmonlar zaminiga borib o'rinish qoldilar, ko'plab mamlakatlarni o'zlariga bo'ysin-dirdilar va tez orada musulmon dinini qabul qildilar. Ular o'zlarining yangi dinlarini himoya qilishga shay qudratli, yaxshi tayyorgarlikka ega harbiy kuchga aylandilar.

### **MO'G'ULLAR QAYERDA YASHAGANLAR?**

Juda uzoq muddat, ya'ni naqd XIII asr mobaynida xalqlar mo'gullardan qo'rqib yashaganlar.

Mo'g'ullar O'rta Osiyoning suronli va hadsiz cho'lu biyobonlarida istiqomat qiluvchi ko'chmanchi xalq bo'lgan. Ular o'zlarining sonsiz sanoqsiz podalari va qo'y otarlari uchun yem-xashak qidirib Mo'g'ulistondan to Dunay bo'ylarigacha bo'lgan hududda ko'chmanchilik qilib kun kechirganlar. O'tgan asrlar davomida ular nisbatan o'troq turmush tarziga ega juda ko'p xalqlar bilan urush qilganlar. Ammo ular ko'proq o'zaro urushganlar. Sababi turli tuman mo'gul urug'lari, qabilalari o'zining boshqalardan ustun ekanligini isbotlashga jonjahdi bilan intilgan.

Mo'gullar jangda hech qachon asir olmaganlar, ular o'zlariga qarshi har qanday dushmani g'orat aylab, kunpayakun etganlar. Bu esa o'sha davr solnomachilarini dahshatga solgan. Shu bois tarixchilar ularni o'z asarlarida insoniylik xislatlaridan mahrum, qirginlardan, vayronagarchilikdan zavqu shavqqa to'luvchi qonxo'r mahluqlar sifatida tasvirlashgan.

### **CHINGIZXON KIM BO'LGAN?**

Qadim-qadim zamonlardan buyon Osiyodagi Oltoy va Xingan tog' tizmalarining yon bag'irlarida mo'gullar yoki tatarlar nomi bilan ma'lumu mashhur bo'lgan ko'plab ko'chmanchi xalqlar yashab kelishgan. XIII asrning boshlarida ular Temuchin tomonidan tuzilgan kuchli mo'gul imperiyasiga birikdilar. Sahroyi asilzodalarning 1206- yilda o'tkazilgan qurultoyi (s'yezdi) Temuchinni barcha mo'g'ultatar qabilalarining buyuk xoni deb e'lon qildi hamda uni Chingizxon unvoni bilan taqdirladi (Tengiz — turkiy tilda dengiz, ummon degan ma'noni anglatadi).

Buning hech bir ajablanarli joyi yo'q edi, zero 1204- yildayoq Temuchin hokimiyat uchun bo'lgan kurashlarda o'zining barcha raqiblarini kunpayakun qilib juda katta hududni o'ziga bo'ysindirib olgan edi.

Tabiatan kuchli, irodali, o'ta ayyor bo'lgan Chingizxon ajoyib sarkarda ham bo'lib chiqdi. U 1213- yilda Shimoliy Xitoyni zabt etdi, shundan so'ng G'arbga tomon yurish qilib, bosgan yo'lida vayronagarchiliklar va dahshatlar urug'ini sohib to Kaspiy dengizi va Armanistongacha yetib bordi. Tez orada mog'ul-tatarlarning ilg'or qo'shinlari Qora dengiz bo'yydagi cho'llarga yetib keldilar va u yerdagi qipchoqlar bilan to'qnashdi. Shundan so'ng bu hudud aholisi Janubiy Rus

knyazlaridan yordam suradilar. 1223- yilda Kalka daryosi bo'yida katta jang bo'lib o'tdi. Mahalliy qipchoqlar va rus knyazlari mardonavor jang qildilar, biroq ularda hamjihatlik yo'q edi, shu boisdan oxir oqibatda ular mag'lubiyatga yuz tutdilar. Tatarlar asirlarni shafqatsizlarcha qirib tashladilar, qochishga tutingan lashkarlarni esa to Dnepr bo'yigacha quvib bordilar, shundan so'ng ular ortga qaytib Qrimga bosib kirdilar. Qo'l ostidagi ulkan davlatni muvaffaqiyatli idora qilish uchun Chingizxon mo'g'ul-tatar qabilalarini tumanlar — deb nom olgan harbiy-ma'muriy birikmalarga ajratdi. Buyuk xonning talabiga muvofiq har bir tuman unga 1000 nafar otliq jangchi tayyorlab berishi lozim edi. Bundan tashqari aholining har qanday noroziligi, tarkibida 10 ming askar bo'lgan Chingizxonning shaxsan o'ziga qarashli qo'shin tomonidan bostirilar edi.

1226- yilda buyuk xon tangutlar davlati Siyaga (ushbu davlat hozirgi Xitoy hududida joylashgan edi) yurish boshladi. Tangutlar davlatining zabt etilishi Chingizxonning eng so'nggi zafari bo'ldi. U 1227- yilning 25- avgustida vafot etdi.